



# TAMADDUN NURI

Илмий, ижтимоий-фалсафий,  
маданий-маърифий,  
адабий-бадиий журнал  
Икки ойда бир марта чиқади

## МУАССИС:

Қорақалпогистон Республикаси  
Беруний тумани ҳокимлиги

**ҲАМКОРЛАРИМИЗ:**  
ЎзРФА Қорақалпогистон бўлими  
Хоразм Маъмун академияси

**ЖАМОАТЧИЛИК КЕНГАШИ:**  
Сирохиддин САЙИД  
Муҳаммад АЛИ  
Кенгесбий КАРИМОВ  
Икбол МИРЗО  
Гулустон МАТЕҶУБОВА  
Қурбон ШОНИЁЗОВ  
Ўрзобий АБДУРАҲМОНОВ  
Муротбой ЖУМАНОВ

**БОШ МУҲАРРИР:**  
Мунаввара ҚУРБОНБОЕВА

**БЎЛИМ МУҲАРРИРИ:**  
Анвар АЛЛАМБЕРГЕНОВ

**ТАХРИР ҲАЙЪАТИ:**  
Акмал САЙДОВ  
Нағмет АИМБЕТОВ  
Қаҳрамон ҚУРОНБОЕВ  
Шорустам ШОМУСАРОВ  
Каримбай ҚУРОМБОЕВ  
Зарифбай ДЎСИМОВ  
Олмос УЛВИЙ  
Ваҳоб РАҲМОНОВ  
Бахтиёр КАРИМОВ  
Алима БЕРДИМИРОДОВА  
Марат НИЁЗИМБЕТОВ  
Алмагул БАЙРИЕВА  
Яхшибека АБДУЛЛАЕВА  
Машариб АБДУЛЛАЕВ  
Үктам МАВЛОНОВ  
Муҳаммадшариф ХЎЖАНИЁЗОВ  
Қозоқбай Йўлдошев  
Сафо МАТЖНОВ  
Мэлс ҚОБУЛОВ  
Усербой АЛЕУВ  
Бозорбай ОРАЗАЛИЕВ

**Рассом:** Алибек АБДУРАҲМОНОВ

## Саҳифаловчи-безовчи:

Фиёсиддин ЎНАРОВ

## Техник мұхаррир:

Улугбек САЙДОВ

**Ушбу сон** "Тамаддун нури" журнали  
таҳририятининг компьютерида  
саҳифаланди.

Журнал ОАК эътироф этган  
нашрларнинг 07.00.00 "Тарих",  
09.00.00 "Фалсафа", 10.00.00  
"Филология" ихтисослиги бўйича  
рўйхатига кирилтган.

# MUNDARIJA

## JAMIYAT

*Mahamadjon ISROILOV.* Fuqarolik jamiyatni rivojlanishida ta'limgardagi islohotlarning ob'yektiv zaruriyati..... 2

## FALSAFA

*Zamiraxon ISAQOVA.* Vaqtning falsafiy-ironiy tahlili..... 5

## TARIX

*Sherali ALLABERGANOV.* Ikkinchiji jahon urushi yillarda xorazm viloyati sanoatining rivojlanishi..... 9

*Arislanbay GULIMBETOV.* Xo'jayli shahrida savdo va tadbirkorlikning rivojlanishi..... 12

*Nafisa HAYOTOVA.* Buxoroda demografik jarayonlar: tarix va hozirgi zamон..... 16

*Abduvali YO'L DOSHEV.* XX asning 20-yillarda germaniyada o'qigan xorazmlik yoshlarning ta'lif faoliyatidani..... 20

*Gulmira ACHILOVA.* O'troq madaniyatning ko'chmanchilik an'analaridan ustunlikka erishishi:  
mo'g'ullarning movarounnahrda o'troqlashuvi misolida..... 24

*Dilnoza JAMOLOVA.* Misrdagi taraqqiyatparvarlik harakatlarining buxorodagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta'siri.... 27

## FILOLOGIYA

*Mo'tabarxon MADAева.* Zamoniaviy misr hikoyachiligi..... 30

*Mansurbek BABADJANOV.* Mintaqaviy frazemalarda lingvokulturologik o'ziga xosliklarning aks etishi..... 35

*Ziyoda OJIKBAEVA.* Tileubergen Jumamuratov asarlarida hayotiy pozitsiya tushunchasi..... 37

*Низами МАМЕДОВ ТАГИСОЙ.* Сейдин амирлан – исследователь, издатель, фольклорист и собиратель..... 40

*Shahnoza GULYAMOVA. Shahlo HAMROEVA.* Turkiy tilli korpus tuzishning nazari va amaliy masalalari xususida... 43

## TILSHUNOSLIK

*Elizaveta ISKENDERОVA.* Qoraqalpoq tilida qo'y chorvachiligiga bog'liq evfemizmlar..... 47

*Xamza XAITOV.* Hajviy-yumoristik asarlarda kulgi uyg'otishda makoronizmlarning o'rni va roli..... 51

## PEDAGOG MINBARI

*Umida ISMOILOVA.* Maktab amaliyotchi psixologini va pedagogik jamoaning o'smir yoshdagagi o'quvchilar bilan ishlashi... 54

**Манзилимиз:** Қорақалпогистон Республикаси, Беруний тумани  
“Халқлар дўстлиги” кўчаси, 11-й. e-mail: qurbanboyeva@inbox.ru

Тел.: (+99899) 504-84-84

Босишига 22.04.2021 йилда рухсат берилди.

Қоғоз бичими 60x84 ¼. Нашриёт хисоб табоги 6.5. Индекс – 960

Журнал 2016 йил 28 сентябрда Ўзбекистон Республикаси Матбуот ва ахборот

агентлиги томонидан № 0843 рақами билан қайта рўйхатдан ўтган.

Журналдан кўчириб босилганда “Тамаддун нури”дан олинди деб изохланиши шарт. Матн

хамда reklamalardagi маълумотларнинг тўғрилиги учун муаллифлар масъулдор.

Таҳририятта келган кўлёзмалар тақриз қилинмайди ва муаллифга қайтарилмайди.

“SILVER STAR PRINT” МЧЖ босмахонасида чоп этилди. Буюртма № 15.

Адади 1200 дона. Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, 22-мавзе, 17-й.

ISSN 2181-8258

UDK:1:28(093)

## VAQTNING FALSAFIY- IRFONIY TAHLILI

**Annotatsiya:** Maqolada borliqda sodir bo'ladigan hodisa va jarayon-larning ketma-ket ro'y berishi va davomiyligini ifodalaydigan vaqt tu-shunchasining tabiatni, vaqtning makon va zamondagi o'rni, vaqtning inson ongi, tafakkuri va ruhiyatiga ta'siri, shuningdek, vaqtning mohiyati Qur'on, hadis va tasavvuf ilmiga doir adabiyotlar asosida tadqiq etilib, falsafiy-irfoniylahil qilingan.

**Kalit so'zlar:** borliq, Qur'on, vaqt, nisbiylik nazariyasi, o'tkinchilik, abadiylik, orif, makon, zamon, o'tmish, kelajak, bugun, fursat, lahza, g'aflat, ogohlilik.

**Аннотация:** В статье исследуется природа понятия времени, место времени в пространстве и времени, влияние времени на разум, мышление и психику человека, а также сделана философско-эпистемологический анализ сущность времени на основе Корана, хадисы и литературы по суфизму.

**Ключевые слова:** бытие, Коран, время, теория относительности, быстротечность, вечность, ариф, пространство, время, прошлое, будущее, сегодня, возможность, момент, незнание, осознание.

**Annotation:** This article examines the nature of the concept of time, the place of time in space and time, the influence of time on the mind, thinking and psyche of a person, as well as a philosophical and epistemological analysis of the essence of time based on the Koran, hadith and literature on Sufism.

**Key words:** being, the Koran, time, theory of relativity, transience, eternity, arif, space, time, past, future, today, opportunity, moment, ignorance, awareness.

**K**irish. Borliqda vaqt hodisasi har bir jarayon bilan bevosita bog'liqligi sababli fanlar doirasida turli aspektida zaruriy ingrediyent sifatida tadqiq etiladi. Vaqtning transental atributidan uning materianing makon va harakati bilan aloqasi, moddiy sistemadagi uzunlik, assimetriya, qaytarilmaslik, nozikllilik, uzluklilik (diskretlik) bilan uzlusizlik (permanent)ning birligi, bog'langanlik, strukturaviy munosabatlarga qaramlikni qayd etish o'rinniki, vaqt bir o'lchovli bo'lib, faqat bir tomonga, progressga, ya'ni ilgariga qarab boradi. Vaqtning uzlukliliqi nisbiy bo'lib, uzlusizligi esa mutlaqdir.

XX asrda nisbiylik nazariyasi va kvant mexanikasining fazo va vaqt haqidagi olamshumul g'oyasi asosida buyuk kashfiyotga yo'l ochildi, ya'ni uch o'lchamli fazo o'miga to'rt o'lchamli fazo (to'rtinchchi o'lcham – vaqt) kategoriyasi yetakchi mavqega ko'tarildi: "Bundan keyin fazo o'z-o'zicha va vaqt o'z-o'zicha yo'qlikka yuz tutib, endi faqat ularning nozik "birikuvi" o'z mustaqilligini saqlab qolishi zarur" [1.4]. Nisbiylik nazariyasi fazo va vaqt orasidagi bog'liqlikni mustahkamladi. Olamning eng oddiy unsuri "voqeа" bo'lib, u xuddi zum o'chib-yonadigan chiroqning oniy chaqnashiga o'xshash "xol-xol" hodisaga mos keladi [2.120., 133], ya'ni fazo vaqt olamdagi



Zamiraxon ISAQOVA,  
Namangan Davlat  
universiteti,  
falsafa fanlari  
nomzodi, dotsent



barcha hodisalar to'plami bo'lib, bunda bir hodisaning ikkinchi hodisaga ta'sir etish nisbati alohida e'tiborga ega, voqealari-hodisalar ketma-ketlikda ro'y beradi, vaqt oldinga qarab beto'xtov harakatlanadi. Fizika aniq ilmiy asos va dalillarga tayaniq ish ko'radi. Bu tushunarli: "Vaqt uch o'lchamli fazo chegarasidan tashqari chiqadi. Inson his etadigan vaqt to'rtinchi o'lchamdir" [3.239].

Abadiylik, ya'ni beshinchini o'lcham borasida yangi fizika asoslarini yaratgan olimlarning barchasi botiniy ma'noda barcha olamlar Yaratuvchisini tan olishgan. Vaqt fazodan tashqari chiqqan, undan ajralgan holda fazoga ta'sir o'tkazadi. Fazo vaqtida, vaqt orqali vaqtning zamirida yashaydi: "Agar vaqt chiziq deb tasavvur qilinsa, bu chiziqning har bir nuqtasida abadiylik chiziq'i (vertikali) bilan kesishadi. Abadiylik vaqtidan bir o'lchamga ortiq. Shuning uchun agar vaqt to'rtinchi o'lcham bo'ladigan bo'lsa, abadiylik beshinchini o'lchamdir" [4.6-7]. Abadiylik qodir Alloh izmi va huzuridagi sir-sinoatdir.

Vaqtning bir tomonlama yo'nalishi uning faqat o'tmishtdan kelajakka qarab harakatlanishini ko'rsatadi, ya'ni vaqt qaytarilmaydi, aksincha, doimo ilgari intiladi. Vaqtda antinomik, ya'ni o'tmishtga qarab harakat qilish mumkin emas. Vaqtning cheksizligi moddiy dunyoning yashashi va rivojlanishining boshi ham yo'q va oxiri ham bo'imasligiga dalolat bo'lib, vaqtning sirliliqi uning asl mohiyatini anglash va tasavvufiy-ironiy tahlil etish zaruratini keltirib chiqaradi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Tasavvufga doir manbalarda vaqt "moziy bilan istiqbol o'ttasidi zamona" deb qaralib, vaqt masalasi "hol" dan kelib chiqqan holda tahlil etilgan. Jumladan, Shayx Najmidin Kubro vaqtini bandaning qalbida vorid bo'ladigan ilohiy voridot va rahmoniy tajalliy vaqt, ma'naviy hol [5.215.] deb ta'rif bergan. Shayx Kolobodiy "hol" lar meros qoldirmasligi, har bir maqom uchun ilm borligi, har bir hol uchun ishorot borligi, har bir ishorot uchun vaqt borligini e'tirof etgan [6.72]. Al-Hujviriy talqinida vaqt insonni o'tmisht va kelajakdan ozod qiladigan holatdir, ya'ni qalb ilohiy rishta bilan bog'langanda na o'tmisht xotira qoladi, va na kelajak haqida o'ylar qoladi. Bu holat qalban Alloha bog'lanish vaqtidir [7.368.]. Abu Abdulloh Mag'ribi eng fazilatli ish vaqlarni maqsadga muvofiq sarflash deb bilgan [8.85]. Abu Said Xarroz qimmatbaho vaqtini bebaaho narsadan boshqa narsaga sarflamaginki, inson uchun bebaaho narsa unga egalik qiluvchi o'tmisht va kelajak o'ttasida bo'lish holatidir [7.369] deydi. Junayd Bag'dodiy uchun tasavvuf vaqlarni saqlashdir [6.75].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ilmiy bilishning ob'yeaktivlik (xolislik), tarixiylik, mantiqiylik, sistemalilik, qiyosiy tahlil, vorisiylik, germenevtika, interpretatsiya usullari tashkil etdi.

**Tahlil va natijalar.** Qur'onda "Darhaqiqat, Alloh barcha narsa uchun miqdor-o'lchov qilib qo'ygandir"

[9.17] deyilgan. Vaqt o'tmisht (moziy) bilan kelajak (istiqbol) o'ttasidagi zamon birligi bo'lib, Allohnинг vaqt bilan insonning vaqt o'ttasida farq katta. Inson hisobidagi ming yil Allohnинг vaqt bilan bir kundir [9.47], ya'ni oyatdagagi ellik ming yillik kun insonning vaqtiga ko'ra emas, Allohnинг vaqtiga ko'radir: "Farishtalar va Ruh Uning huzuriga miqdori ellik ming yil bo'lgan kunda ko'tariladi" [9.4]. Oyatdan anglashiladi, inson ellik ming yil yashasa, Alloh taolonning nazdida umri bir kun bo'ladi. Agar inson yuz yil yashasa, Allohnинг nazdida uning umri bir yarim soniya bo'ladi. O'rtacha yuz yillik umrning uchdan biri uyqu, go'daklik, bolalik bilan o'tsa, qolgan umr Allohnинг nazdida yarim soniya bo'ladi.

Irfoni bilishda vaqt konsepsiysi bir-biri bilan o'zaro bog'liqlik, o'zaro harakatni ifodalaydi. "Vaqt" istilohi vaqt, zamon o'tishini emas, balki tilaguvchi (talab), istaganini izlovchi (murid) uchun hol vaqt yetganini anglatadi: "Tavhid ahlining vaqtleri ikkidur. Biri faqat "foqo" (muhtojlik) holida, ikkinchisi "vajd" holida. Bularning biri vasl mahalidagi vaqt, ikkinchisi firoq va hijron damidagi vaqt" [7.66.].

Vaqtga ma'naviy-ruhiy harakat va ma'rifiy faoliyat orqali "palla", "zamon", "fursat", "mahal", "chog", "kez", "mavrid", "muddat", "on", "dam" va "lahza" ning mazmuni teran anglashiladi. "Muddat" o'lchangan, belgilangan vaqtini bildirsa, "fursat" biror ish-harakat uchun belgilangan vaqtini ko'rsatadi. "Zamon" biror hodisa-voqealari bilan bog'liq bo'lgan vaqt oralig'ini belgilaydi. "Lahza", "on", "dam" vaqtning eng qisqa daramasini aks ettiradi, bu nuqtada Haq tajalliyi, Allohnинг "Zohir" ismi martabasida namoyon bo'ladi.

Orif "dam" va "lahza" ning siri, ma'nosи, qudratini kashf qilish uchun "hol" ning tub mohiyatini tafakkur qiladi: inson umri o'tkinchi, inson tug'iladi, yashaydi va bu dunyoni tark etadi, har qanday inson vaqtning har bir soniyasida abadiylik chegarasida turadi.

Irfon bilimning "real" manbai bo'lishga da'vo qilar ekan, vaqtning hozirgi bir bo'lagi, agar unga ichidan nazar tashlansa, hozir "mantiqiy" deb hisoblanadigan haqiqatni qabul qila olmaydi. Shu jihatdan, Shayx Najmiddin Kubro vaqtning "nafas", "lahza" bilan uyg'un nuqtasiga urg'u bergan: "Vaqt keskir bir qilichdir. Agar keskir bo'lmaganda edi, holdan holga o'tguningga qadar seni kutgan bo'lardi. Holbuki, "zamon" o'tkir qilichdek harakatlanadi va o'z hukmini ijro etadi. So'fiy "ibn ul-vaqt" ya'ni vaqtning o'g'li, u bilan barobar yurar, o'tmishtga ham, istiqbolga ham nazar tashlamas. Chunki uning moziyga yoki mustaqbalga boqmog'i o'tmisht yoki kelajakni o'ylab, ayni "on" dagi vaqtini behuda ketkazmog'i demakdir. Buning takrori esa ko'p vaqtini zoye etar. Sog'lim muroqabaning sharti ham muhofazai vaqtidir" [5.157-158]. Demak, vaqt kelajak va o'tmisht ildizlarini kesib, qalbdan kecha va ertangi kun g'aminib o'chiradi. Vaqtini behuda o'tkazgan inson Yaratuvchisidan butkul uziladi (bir

"on"ning bahosin o'lchamoq uchun, oltindan tarozu, olmosdan tosh oz). Orif nazarida eng fazilatli ish vaqt ni maqsadga muvofiq o'tkazishdir.

Tasavvufiy-irfoniy istilohda g'aflat boy berish va mag'lubiyatdirki, dunyo uch kundan iborat: bir kun o'tib ketdi (o'tmish), yana bir kuni keladimi, yo'qmi, Allah biladi (kelajak). Inson hozirgi kunini g'animat bilib, harakatdan to'xtamasligi lozim (bugun). Orif uchun muhimi hushyorlik g'animatdir. Fursatni boy bermaslik, ayni shu vaqt, ayni shu dam talablarini og'ishmay bajarishdirki, hol ma'rifatini anglagan orif behuda iztirobga berilmaydi, besamar ishga umrini sarflamaydi, har nafasini qadrlaydi, har nafasi uchun javobgarlikni xotiridan chiqarmaydi. Orif mana shu tutumi bilan boshqalardan farqlanadiki, orifda inson ongini poklovchi, ya'ni ong va idrokni keraksiz "yuk"dan forig' etuvchi tiganmas quvvat (energiya) mujassamdir. Hol vaqt kelganida orif o'tmishni ham, keljakni ham o'ylamay, o'sha lahma, o'sha dam bilan yashaydi, ya'ni hol vaqtida orif uchun o'tgan hayotining ham, keljakdagagi hayotining ham ahamiyati yo'qoladi [7.67].

Hol yetishgan vaqtini to'ldirib, jismga jon bo'lib kiruvchi ne'mat bo'lsa, vaqt holga muhtoj, ya'ni hol vaqtga jon berib, uni bezaydi. Vaqtini topgan orif "hol"ni ham topsa, mustaqim, barqaror bo'ladi.

Orifni ikki vaqtida bir holatda ko'rib bo'lmaydi. Orif o'tmishga ham, istiqbolga ham boqmaydi, uning moziy yoki keljakka ko'z tikishi, ayni damdagini vaqtini behudaga sarf qilishi bilan barobar. Aksincha, orifning vaqt qaro zulmatdir [5.117]ki, bir lahma ham ma'rifatdan to'xtamaydi: "Biz o'z ilmlarimizni o'lmaydigan, doimo tirik zot, ya'ni Allohdan olganmiz [10.27] deb hamisha Allohga "qalb va botin bilan mutavajjih (yuzlanadi) bo'ladi" [11.63].

Vujud uchun ruh qanday ahamiyatga ega bo'lsa, vaqt uchun ham "hol" xuddi shundaydir. Vaqt mutlaq holga muhtojki, buning sababi vaqtning safosi hol bilan qoyim bo'lishi, hol vaqtga birlashgach, zamonlar vaqtga aylanishi, uning uchun zavol joiz bo'lmasligidir [7.67].

Orif o'z vaqtidagi vazifasini ado etish bilan mashg'ul bo'ladi. Shuning uchun orif "sohib ul-vaqt" (vaqt sohibi)dir. Vaqt o'sha vaqt sohibi (Alloh)ning sifatidir, har kim o'z sifati bilan orom olsa, u orif emas. Vaqt bo'shliq bo'lib, unda orif o'z mashaqqatlardan dam oladi [6.117]. Insonning hayoti tejalgan vaqtiga qarab uzayadiki, orif o'z vaqt (holi)ning bolasidir.

**Xulosa.** Aynan oriflar individual "men" doirasidan yuqori ko'tarilib, muqarrar kosmik "men" darajasiga yuksalganki, E.Bertels "Navoiy va Attor" maqolasida tasavvufning bosh g'oyasi "individual "men"ning kosmik "men"ga qorishib ketishidir" deb ta'kidlagan. Hasan Basriyning "Ishni ertaga surishdan saqlan, chunki sen buguning bilan hayotsan, ertang bilan emas. Agar ertang aniq seniki bo'lsa, unda bugun qanday bo'lgan bo'lsang shunday bo'l,

aks holda (ertagacha yetib bora olmasang,) bugungi amaling uchun afsus-nadomat qilmaydigan bo'll" de gan hikmatli so'zlari asrlar osha o'z qimmatini yo'qotmagan. Umrining har "lahza"si uchun haykal qo'ygan ma'rifat ahllining vaqtga munosabati bugungi yosh avlod ta'lrim-tarbiyasida muhim ahamiyatga egadirki, yoshlarni ijodga, yaratishga, lahzani bo'ysundi- rishga chorlash bilan birga, ibrat olsa arziyidigan o'git beradi, ya'ni, ertaga bugunni qaytarib bo'lmaydi, yoshlar ixtiyoridagi hozirgi damni g'animat bilib, uni ilm-ma'rifat va kasb-hunar, axloq-odob, ezgu ishlar uchun istifoda etish bilan kelajaklari uchun zamin ho-zirlashadi.

**Takliflar.** Ma'rifat ahli vaqtlarini foydali ishlarga, go'zal axloqiy va ilmiy darajalarga yetish yo'lida sarflashda ogoh va sergak bo'lishgan. Ularning bu-guni kechagi kunidan, ertangi kuni bugungi kunidan a'lo va afzal bo'lgan. Shu nuqtai nazardan, ulug' allomalar va mutafakkirlarning hayotlaridan olingan ibratli voqealar, vaqt qadri ifodalangan uslubiy tavi-siya-qo'llanma, film yaratish yoshlarning vaqtining qadriga yetish va o'z vaqtidan unumli foydalanishiga zamin bo'ladi.

Inson umrining mohiyati bugungi kun, ayni lahzada qanday yashay olishi, qanday o'tkazishi orqali ochiladi: kim vaqtini zoye (bekor) ketkazsa, vaqt uning dushmaniga aylanadi. Tirik vaqt, oniy lahma o'tmishning, o'tib ketgan vaqtning yuz yiliga teng. Muhimi, o'tmish hozir, ya'ni "lahza"ga tobe, hozir o'tib ketgan, o'tmishga aylangan vaqt dan behad qimmat, shu bilan birga, hozir tizginsiz, uni boshqarib yoki to'xtatib bo'lmaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Минковский Г. Фазо ва вақт. Spb., 1908. 4-bet.
2. Александров А.Д. О философском содержании теории относительности. – М.: 1979. 120, 133-betlar.
3. Успенский П.Д. В поисках чудесного. Санкт-Петербург. 1992. 239-bet.
4. Успенский П.Д. Новая модель Вселенной. Санкт-Петербург. 1993. 6-7-betlar.
5. Shayx Najmaddin Kubro. Tasavvufiyyayayot / Tarjimon va nashrga tayyorlovchilar: I.Haqqul, A.Bekto-sh. Mas'ul muharrir: S.Sayfulloh. – T.: Mavaroun-nahr, 2004. 117, 157-158, 215-betlar.
6. Shayx al-Kalobodi. Tasavvuf sarchashmasi / Arabchadan Otaqul Mavlona o'g'li va Mavluda Otaqul qizi tarjimasi. – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2002. 72, 75, 117-betlar.
7. Ali ibn Usman al-Djullabi al-Xudjviri. Raskritiye skritogo za zavesoy dlya svedushix v taynax serdets. (Kashf al-maxjub li arbab al-kulub) / Per. s angliyskogo A.Orlova. Izdaniye pervoye. – M.: Yedinstvo, 2004. 66, 67, 368, 369-betlar.

8. *Imom Abu Abdurahmon as-Sullami. Tabaqoti sufijya / Tarjima, nashrga tayyorlovchi va muqad. mual. M.Nuriddinov.* – T.: Fan, 2004. 85-bet.

9. *Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri / Tarjima va tafsir muallifi A.Mansur. Mas'ul muharrir: Z.Husniddinov. Tarjima va izohlar muallifi Abdulaziz Mansur.* – T.: Toshkent islam universiteti nashriyoti, 2004. Taloq surasi, 17-oyat, Haj surasi, 47-oyat, Maorij surasi, 4-oyat.

10. *Xoja Ubaydulloh Ahror. Tabarruk risolalar / Nashrga tayyorlovchi, tarjimon, so'z boshi va izoh mualliflari: Mahmud Hasaniy, Bahriiddin Umrzoq, Hamidulloh Amin. Mas'ul muharrir: Bahrom Abduhalimov.* – T.: Adolat, 2004. 27-bet.

11. *Jaloliddin Rumiy. Ma'naviy masnaviy. Kulliyot. Birinchi jild. Birinchi kitob (Tarjima sharhi bilan) / Tarjimon Asqar Mahkam. Sharh mualliflari Obiddin Poshsho, Karim Zamoniy, Asqar Mahkam. Mas'ul muharrir: T.Mahmudov.* – T.: Sharq, 1999. 63-bet.

## MA'NOLAR MAHZANI

# “QUTADG‘U BILIG” HIKMATLARI



To'g'rilik shunday bir boylikdirki, unuing turgan-bitgani xayr va nafdir, bu nafi tufayli odamning halovati mangu bo'ladi.

To'g'ri odamning kunlari halovatda bo'ladi, hayot kunlari halovatlilarning baxt-qutlari mangu bo'ladi.

Ko'ngil va tilni to'g'ri, yo'riq qilmishlarni rost tutib yurganga dunyo – davlat va qut-saodat o'zi yuz urib keladi.

To'g'ri bo'lsang hayoting saodatli bo'ladi va baxt bilan salomat kun kechirasan.

Marhamatli, hushyor va ziyrak bo'lism darkor, odam ziyraklik bilan minglab ishlarga tadbir topadi.

Zakovatli, aql-idrokli, zehnli, did-farosatli bo'lism, andisha oriyatsiz kishidan uzoq turish, undan mutlaqo yuz o'girish kerak.

Uyat-andisha yaramas ishlarning oldini oladi, fe'l-xulqi yaramas odamni uyat-andisha to'g'rilaydi.

**Yusuf Xos HOJIB**

